

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 21 (1620), 2026-yil 31-yanvar, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



BIRINCHI PREZIDENT XOTIRASIGA YUKSAK ENTIROM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-yanvar kuni Toshkent shahrida Islom Karimov haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.



Tarixiy xotira — millat kelajagining mustahkam poydevori. O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi, davlatchilik asoslarining barpo etilishida Birinchi Prezident Islom Karimovning

xizmatlari beqiyos ekani chuqur hurmat va e’tirof bilan yodga olinadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va e’tibori bilan Birinchi Prezidentning xotirasi abadiylashtirildi,

Samarqandda uning maqbarasi barpo etildi. Islom Karimov tavallud topgan 30-yanvar sanasini nishonlash ezgu an’anaga aylandi. Marosim davomida Qur’on tilovat

qilinib, duo o‘qildi. Birinchi Prezidentning Vatan manfaatlarini yo‘lidagi faoliyati, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, insoniy fazilatlariga yodga olindi. Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasida bo‘lib o‘tgan

marosimda Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi va hukumat vakillari, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Shuningdek, Birinchi Prezidentning

Samarqand va Qarshi shaharlaridagi haykallari poyiga ham gullar qo‘yilib, xotirasiga ehtirom ko‘rsatildi.

O‘ZA

“O‘ZBEKNEFTGAZ” AKSIYADORLIK JAMIYATINING KELGUSIDAGI USTUVOR VAZIFALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda energetika xavfsizligini mustahkamlash, energiya resurslari, jumladan, tabiiy gazga bo‘lgan ichki talabni barqaror qondirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz ta’minlash bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyot va aholining tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgani yangi zaxiralarni aniqlash, mavjud konlar samaradorligini oshirish va yangilarini ishga tushirishni taqozo etmoqda.

Shu munosabat bilan “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining oldiga sohada natijadorlikni tubdan oshirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish vazifalari qo‘yilgan.

Qayd etilganidek, 2025-yilda jamiyat korxonalari tomonidan 25,2 milliard kub metr tabiiy gaz qazib chiqarilib, 56 ta yangi quduq burg‘ilandi, 29 ta quduq mukammal ta’mirlandi.

Taqdimotda buning uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida axborot berildi.

Jumladan, geologiya-qidiruv va geologik-texnik tadbirlar samaradorligini oshirish, zaxiralarni ko‘paytirish va qazib chiqarish hajmlarining barqarorligini ta’minlash, xaridlar tartib-taomillarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, gazni chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, import o‘rni bosuvchi eksport bo‘lmagan aktivlarni tasarrufdan chiqarish, homiylik to‘lovlarini to‘xtatish hamda xarajatlarni maqullashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga ustuvor ahamiyat qaratilishi qayd etildi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, sohada sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ichki nazorat va kompaniyasining kuchaytirish, moliyaviy aktivlar harakatini nazorat qilish, korruptsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini

olish masalalari jamiyat faoliyatining muhim ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Davlatimiz rahbari mazkur vazifalar va rejalashtirilgan barcha tadbirlar ijrosini aniq hisob-kitob, qat’iy intizom hamda shaxsiy javobgarlik asosida ta’minlash yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Taqdimotda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish jarayonida, shu jumladan, Surxondaryo viloyatida qayd etilgan texnologiyalar ham to‘xtatilib o‘tildi. Bunday holatlar yangi istiqbolli maydonlarni izlash, quduqlarni chuqur burg‘ilash va geologik qatlamlarni o‘rganish jarayonlarining tabiiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular dunyo amaliyotida ham ko‘p uchray turadi. Yurtimizda bunday vaziyatlarda tegishli choralar ko‘rib borilayotgani ta’kidlandi.

Prezidentimiz mutasaddilarga geologik tadqiqotlar olib borilayotgan hududlarda doimiy monitoringni kuchaytirish, zamonaviy nazorat texnologiyalarini joriy etish hamda aholi xavfsizligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

JIZZAX VILOYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA LOYIHALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

O‘tgan yillarda olib borilgan islohotlar va tizimli chora-tadbirlar natijasida viloyat iqtisodiyotida tarkibiy transformatsiya yuz berdi. Natijada hudud agrar sohadan diversifikatsiyalangan sanoat, xizmatlar va zamonaviy agroklastarlarga ixtisoslashdi. To‘qimachilik, qurilish materiallari, avtomobilsozlik, elektrotexnika va turizm kabi yangi o‘sinh drayverlari shakllandi.

Yalpi hududiy mahsulotda sanoat ulushi 9,1 foizdan 18,8 foizga oshdi, qishloq xo‘jaligining ulushi 50 foizdan 36 foizga kamaydi. Shuningdek, ishsizlik va kambag‘allik tegishlacha 4,9 va 5,8 foizga kamaydi, eksport 1,8 barobar, xizmat ko‘rsatish 1,6, sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1,9 barobar ko‘paydi.

25 ta yirik hamda 533 ta o‘rta va kichik investitsiya loyihalari ishga tushirildi, 1,4 milliard dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Eksportchi korxonalar soni 160 taga yetib, eksport hajmi 285 million dollarni tashkil qildi. Yig‘ilishda viloyatda kambag‘allik va ishsizlikni yanada

qisqartirish, sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligida keskin o‘shishga erishish bo‘yicha rejalar ko‘rib chiqildi.

Xususan, 2026-2027-yillarda yalpi hududiy mahsulotning o‘sinh sur‘atlarini 8,5 foizga yetkazish, sanoatda ishlab chiqarish hajmini 8 foizga oshirish, 5 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish va yillik eksport hajmini 500 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

E’tiborsiz, o‘tgan yillarda investitsiyalar asosan xomashyo qazib olish yoki oddiy yig‘uv ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, endilikda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sanoat loyihalariga yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, joriy yilda viloyatda ishsizlik darajasini 3 foizga, kambag‘allikni 2,8 foizga tushirish, 182 ta mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari bu maqsadlarga viloyatdagi mahallalarni chuqur ixtisoslashtirmasdan erishib bo‘lmayligini qayd etdi.

Davomi 2-betda

TOSHKENT VA ANQARANING MUSTAHKAM ALOQALARI

TURKIY DUNYO MANFAATLARI MUSHTARAKLIGINING YAQQOL IFODASIDIR

Xorijiy ekspertlar oliy darajadagi O‘zbekiston – Turkiya sammiti yakunlari haqida

O‘zbekiston Prezidentining 29-yanvar kuni Turkiyaga rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich bo‘ldi va o‘ziga xos strategik xususiyatni yaqqol namoyon etdi.

Davlatimiz rahbarining O‘zbekiston va Turkiya Strategik hamkorlik oliy kengashi to‘rtinchi yig‘ilishida hamda vayronkor zilziladan so‘ng O‘zbekiston tomonidan Hatay viloyatida barpo etilgan turar joy majmuasini ishga tushirish marosimida ishtirok etgani ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy muloqot yuksak darajaga chiqqani, xalqlarimizning o‘zaro hamjihatligini ko‘rsatdi.

Xalqaro ekspertlar O‘zbekiston — Turkiya munosabatlariga mustahkam qardoshlik rishtalari, uzoq muddatli manfaatlar mushtarakligi va umumiy tarixiy-madaniy o‘ziga xoslikka asoslangan barqaror strategik sheriklik sifatida qaramoqda.



Ularning baholashicha, Toshkent va Anqara hamkorligi turkiy dunyoda alohida o‘rin tutadi, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, davlatlararo hamkorlikni kengaytirish va Yevroosiyo makonida o‘zaro munosabatlarning yangi arxitekturasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Davomi 2-betda



Yangi O‘zbekiston ruhi

DUNYOGA OCHIQLIK, O‘ZARO HAMKORLIK VA DO‘STONA MULOQOT

So‘nggi yillarda O‘zbekiston mintaq va jahonda tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan ochiqlik, hamkorlik va farovonlik yo‘lidan dadil bormoqda. Mamlakat tashqi siyosati o‘zaro hurmat, teng huquqlilik va manfaatli sheriklik tamoyillariga asoslanib, har tomonlama rivojlanishga intilishni o‘zida aks ettirmoqda.

Prezidentimiz shu yil 22-yanvar kuni Davos shahrida o‘tkazilgan xalqaro muloqot doirasida Tinchlik kengashi tashabbusini qo‘llab-quvvatlagani mamlakatimizning tinchlikparvar va ochiq tashqi siyosatining mantiqiy davomi bo‘ldi. Zero, bugun jahonda ro‘y berayotgan murakkab geosiyosiy vaziyat, turli mintaqalardagi qurolli to‘qnashuvlar tinchlik naqadar ulug‘ ne‘matligini, uni ko‘z qorachig‘iday asrash insoniyatning muqaddas burchi ekanini yaqqol namoyon etmoqda.

Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosati nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo ahliga tinchlik va ravnaq keltiradigan insonparvar tamoyillarga asoslangani bilan ahamiyatlidir. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda xalqaro miqyosda bo‘lib o‘tgan nufuzli anjumanlarda

mamlakatimiz adolati dunyo tartibotini shakllantirish, tinchlik va barqarorlikka erishish borasida muhim tashabbus va g‘oyalarni ilgari surmoqda. Ana shunday ochiq, pragmatik, puxta o‘ylangan va tashabbuskor tashqi siyosat natijasida O‘zbekiston global tinchlik va diplomatiya markazlaridan biriga aylanmoqda.

Prezidentimiz raisligida shu yil 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida qayd etilganidek, 2017-yildan buyon xorijiy davlatlarda 16 ta yangi diplomatik va konsullik vakolatxonasi ochilib, ularning soni 60 taga, diplomatik aloqa o‘rnatilgan davlatlar soni esa 165 taga yetdi.

Davomi 3-betda

etdi. Ushbu majmua nafaqat jabrlangan oilalar uchun yangi uy, balki oʻzbek va turk xalqlari oʻrtasidagi abadiy doʻstlikning yorqin namunasi boʻldi.

Tashrif doirasida davlatimiz rahbari va Turkiya Respublikasi Prezidenti Hatay viloyatida mamlakatimiz tomonidan barpo etilgan “Oʻzbekiston” turar joy majmuasining ochilish marosimida ham qatnashib, yangi xonadonlar kalitlarini egalarga tantanalı topshirdi.

Prezidentlarning Istanbulning Bekirkoy tumanida oʻzbek maktabi qurilishini boshlab bergani tashrifning yana bir eʼtiborli voqeasi boʻldi. Bu dargoh Oʻzbekistonning xorijdagi birinchi taʼlim muassasi boʻlib, u Turkiyada yashovchi oʻzbek oilalarining farzandlariga oʻz ona tilida taʼlim olish bilan birga milliy qadriyatlar, madaniyat va anʼanalarni saqlab qolish imkonini ham beradi.

Umuman olganda, soʻnggi toʻqqiz yilda oʻzbek-turk aloqalarida mazmunan yuz yilliklarga tatigulik oʻzgarishlar yashash uchun mustahkam tamal toshi qoʻyildi. Mazkur tashrif ikki davlat munosabatlari yuqori darajaga olib chiqish bilan birga Oʻzbekiston va Turkiya oʻrtasidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan boyitgan holda oʻzaro manfaatli hamkorlikni yanada yuqori bosqichga koʻtaradi.

USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM OʻQISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

TOSHKENT VA ANQARANING MUSTAHKAM ALOQALARI

TURKIY DUNYO MANFAATLARI MUSHTARAKLIGINING YAQQOL IFODASIDIR

Boshlanishi 1-betda

Antonio Alonso, San-Pablo SEU universiteti professori (Ispaniya):

— Ispaniyadan xalqaro munosabatlar va mintaqaviy rivojlanish jarayonlariga ixtisoslashgan professor sifatida Oʻzbekiston va Turkiya oʻrtasidagi oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining toʻrtinchi yigʻilishi yakunlariga alohida eʼtibor bilan qaramiz.

Avvalo, Prezident Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy siyosiy qarashlari va izchil yetakchiligi mamlakat tashqi siyosatining tubdan oʻzgarishida hal qiluvchi omilga aylanganini alohida taʼkidlash zarur deb hisoblayman. Uning rahbarligida Oʻzbekiston nafaqat asosiy hamkorlar bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamladi, balki masʼuliyatli, tashabbuskor va strategik

fikrlaydigan davlat sifatidagi nufuzini ham shakllantirdi.

Aynan Prezident Shavkat Mirziyoyevning faol va chuqur oʻylangan diplomatiyasi tufayli Oʻzbekiston — Turkiya munosabatlari nisbatan qisqa tarixiy davrda aniq iqtisodiy, gumanitar va institutsional mazmun bilan toʻldirilgan keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Savdo, investitsiyalar va sanoat kooperatsiyasi sohasida erishilgan koʻrsatkichlar uning xalqaro hamkorlik natijadorligi va amaliy samarasini oshirishga qaratilganining bevosita ifodasidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev nafaqat sheriklikning iqtisodiy parametrlariga, balki inson kapitali, taʼlim, fan va madaniyatni rivojlantirishga ham prinsipial ahamiyat qaratayotgani ayniqsa eʼtibordir. Buxoroda Rektorlar forumini oʻtkazish, akademik almashinuvlarni kengaytirish va hududlararo aloqalarni mustahkamlash boʻyicha

tashabbuslar barqaror rivojlanishning uzoq muddatli asoslarini chuqur anglashdan dalolat beradi.

Yevropa akademik hamjamiyati vakili sifatida men ham Oʻzbekiston Prezidentining erishilgan kelishuvlarni institutsionallashtirish

— “yoʻl xaritalari”, hukumatlararo mexanizmlar ifodalangan boshqaruv uslubini yuqori baholayman.

“

Umuman olganda, Strategik hamkorlik kengashi yigʻilishining yakunlari Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Oʻzbekiston Yevroosiyo makonidagi jadal rivojlanayotgan va ochiq sheriklardan biriga aylanganini yaqqol tasdiqlaydi.

Ilyas Gujlyu, “MUSIAD Hessen e.V.” tadbirkorlar uyushmasi raisi oʻrinbosari (Germaniya):

— Ushbu tashrif diplomatik voqeadan koʻra muhimroqdir. U ikki turkiy xalqning vaqt sinovidan oʻtgan va amalda oʻz tasdiqʻini topgan chinakam doʻstligi va hamjihatligining ramzidir. 2023-yil fevral oyida Hatay va Gaziantep viloyatlarida yuz bergan zilzila minglab uylarni vayron qilib, koʻplab insonlarning qurbon boʻlishiga olib kelgani Turkiya uchun jiddiy sinov boʻldi. Ana shunday sinovli damlarda Oʻzbekiston tom maʼnodagi qardosh xalq sifatida oʻzini koʻrsatdi: qutqaruv va tibbiyot brigadalari yuborildi, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon va eng zarur buyumlar olib kelindi, jabrlangan oilalar uchun Arsuз tumanida turar joy majmuasi barpo etildi. Ushbu saʼy-harakatlar mamlakatlar oʻrtasidagi strategik sheriklik soʻz va deklaratsiyalar bilan cheklanib qolmasligini, u aniq ishlar va insoniy qoʻllab-quvvatlash bilan oʻlchanishini yaqqol koʻrsatadi.

Koʻp yillardan buyon Oʻzbekiston — Turkiya munosabatlari ishonch, oʻzaro anglashuv, barqarorlik va farovonlikka umumiy intilish ruhida rivojlanib kelmokda. Diplomatik aloqalar, Strategik hamkorlik kengashining tashkil etilishi va uning oliy darajadagi muntazam yigʻilishlari mustahkam institutsional poydevor yaratmoqda. Oʻzbekiston Prezidentining Turkiyaga besh bor tashrifi va Turkiya rahbarining javob beshbori oʻzaro hamkorlikning yuksak darajasini hamda ikki mamlakat iqtisodiyot va transportdan

David Biro, “Lyudovik” turkiy tadqiqotlar markazi, Lyudovik davlat xizmati universiteti katta maslahatchisi, tadqiqot va akademik tarmoq rahbari (Vengriya):

— Tashrif Turkiya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlarida, umuman, yuqeadir. Tashrif doirasida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining toʻrtinchi yigʻilishi hamda 2023-yil fevral oyida roʻy bergan vayronkor zilzila oqibatida uy-joyidan ayrilgan oilalar uchun Oʻzbekiston tomonidan Hatay viloyatida barpo etilgan turar joy majmuasining ishga tushirilishi bilan bogʻliq gumanitar tadbir boʻlib oʻtdi.

Ushbu koʻp qirrali hamkorlik zamonaviy turkiy diplomatiya doirasida yaxlit institutsional mexanizmlar shaklida rasmiylashtirilayotgan strategik yaqinlashuv, iqtisodiy integratsiya, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik va gumanitar birdamlikni aks ettiradi.

Turkiya — Oʻzbekiston munosabatlari Turkiya Oʻzbekiston mustaqilligini tan olgan va 1992-yil 4-martda diplomatik munosabatlar oʻrnatilganidan buyon izchil institutsionallashuv yoʻlini bosib oʻtdi. Ikki tomonlama aloqalar dinamikasi keyinchalik strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Soʻngra 2018-yil may oyida

hisoblanadi. Oʻzbekiston — Markaziy Osiyoda eng koʻp TDT aʼzolariga ega boʻlgan mintaqaning markaziy davlati sifatida va Turkiya — NATOga aʼzo va sezilarli diplomatik salohiyatga ega davlat sifatida TDTga yuqori darajadagi sodiqlik bilan mustaqil koʻp vektorli tashqi siyosat yuritish imkoniyatini koʻrsatadigan hamkorlik modelini shakllantirmoqda.

Bu galgi tashrif Turkiyada 2026-yilning kuzida boʻlib oʻtadigan TDning 13-sammitiga tayyorgarlik koʻrish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega. Yanvar oyidagi muzokaralar yetakchilarga koʻp tomonlama kun tartibining asosiy masalalari boʻyicha pozitsiyalarni kelishib olish va TDT barcha aʼzo davlatlar oʻrtasidagi munosabatlarga tatbiq etishga intilayotgan institutsional hamkorlik modelini namoyish etish imkonini berdi.

Shunday qilib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil yanvar oyidagi tashrifi institutsional muvofiqlashtirish, iqtisodiy oʻzaro bogʻliqlik, geoiqtisodiy transformatsiya, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik, gumanitar birdamlik va koʻp tomonlama yetakchilikni birlashtirgan Turkiya — Oʻzbekiston munosabatlarning yuksak choʻqqisi boʻldi.

Ishonchim komilki, tashrif natijalari zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida turkiy hamkorlikning strategik ahamiyatini anglashni oshirishga hamda diplomatik tuzilmalar tomonidan yanada rivojlantirish va koʻpaytirishga loyiq mintaqaviy hamkorlik modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ruhi Ersoy, Anqaradagi Ahmad Javod instituti rektori (Turkiya):

— Ikki davlat rahbarlarining “bir millat, ikki davlat” konsepsiyasiga asoslangan uchrashuvi strategik hamkorlikning eng yuqori choʻqqisidir.

Biz uchun Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdogʻanning uchrashuvi turkiy dunyo yana birlashishini anglatadi. Bu uchrashuv nafaqat siyosiy, balki savdo-iqtisodiy, madaniy, til va mafkuraviy jihatdan ham gʻoyat muhimdir.

Madaniy va lisoniy mushtaraklikni mustahkamlash bilan birga savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, oʻzaro tashriflar sonini koʻpaytirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, davlat rahbarlari tomonidan mamlakatlarimizda 2026-yilning “Oila yili” hamda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb

eʼlon qilingani, ijtimoiy rivojlanishga alohida eʼtibor qaratilayotgani juda qimmatli tashabbuslardir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oʻzbekistonda soʻnggi toʻqqiz yilda amalga oshirilgan islohotlar butun turkiy dunyoga oʻmak boʻla oladi. Oʻzbekiston mustaqil turkiy davlatlar

orasida davlatchilik anʼanalari teran boʻlgan mamlakatlardan biri boʻlib, tafakkuri va irodasi yuksak ekanini yaqqol namoyon etdi.

Birinchi Renessans davri, shuningdek, Amir Temur zamonidan to hozirgi kungacha saqlanib qolgan davlatchilik anʼanalari doirasida biz Shavkat Mirziyoyevning Prezidentligini nihoyatda qadrlı deb baholaymiz.

Anqara va Toshkent oʻrtasidagi birodarlik nafaqat savdo aloqalari, balki chuqur tarixiy va madaniy aloqalar bilan ham bogʻliq ekanini juda yaxshi tushunamiz.

Turkiy davlatlar sifatida, xususan, Oʻzbekiston va Turkiya nihoyatda boy va kuchli tarixiy merosga ega. Bu birlik nafaqat turkiy dunyo, balki butun insoniyat uchun zarur. Biz qadriyatlarimizni insoniyatning umidi va ishonchi sifatida koʻrsatish irodasini namoyon etishimiz kerak.

“Dunyo” AA



Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Umuman olganda, mamlakatimiz tashqi siyosatida 2025-yil ko'p jihatdan natijador yil sifatida muhrlandi. Xususan, o'tgan yili 26 ta davlatga oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi, yangi tariximizda ilk bor qator mamlakatlar rahbarlari O'zbekistonga tashrif buyurdi. “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi ko'p tomonlama muloqotlar sarmahul bo'ldi. So'nggi yillarda 11 davlat bilan strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilib, ularning umumiy soni 19 taga yetdi. Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikiston bilan ittifoqchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi.

Bugun dunyoda geosiyosiy keskinlik oshib, kuchli davlatlar o'rtasida o'zaro raqobat kuchayib borayotgan murakkab sharoitda bunday muhim yutuqlarni asrash va ko'paytirish, yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirmoqda. Shu bois, “xavfsiz va tinchlikparvar davlat” tamoyiliga asoslangan tashqi siyosatni izchil davom ettirish, bu borada maqsad, vazifa va ko'rsatkichlarni aniq belgilab olib, faoliyat yo'nalishlarini shakllantirish ko'zlangan marra larga erishishda puxta zamin yaratadi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida bu boradagi maqsad va vazifalar xususida to'xtalib, jahonda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib borayotgan bugungi murakkab vaziyatda barcha davlat bilan teng huquqli va konstruktiv munosabatlarni yanada mustahkamlash, vazmin va oqilona ochiq tashqi siyosat yuritish mamlakatimiz faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib qolishini ta'kidladi. Bu jarayonda, eng avvalo, yaqin qo'shnilarimiz bilan ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhida qo'shni a loqalarni yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Shu bilan birga, asosiy xorijiy sheriklar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalar ko'lami yanada kengaytiriladi.

Yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor muhim hujjat — yangi tahrirdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasida bu borada ustuvor vazifalar belgilandi. Xususan, strategiyada yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Bu jarayonda konsullik xizmatlarini takomillashtirish, O'zbekiston fuqarolari uchun vizasiz kirish mumkin bo'lgan mamlakatlar sonini ko'paytirish kabilar maqsad qilingan.

Tashqi ishlar vazirligi tegishli tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda bu yo'nalishda keng qamrovli ishlarni bajarmoqda. Vazirlik ma'lumotiga ko'ra, dunyoda kechayotgan geosiyosiy o'zgarishlardan kelib chiqqan holda maqsadlarni aniq belgilab, amaliy ishlarni tizimli asosda tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning so'nggi yillarda dunyoga keng ochilishi yurtimizga kelayotgan sayyohlar sonini oshirish barobarida, yurtdoshlarimizning chet mamlakatlarga ish, o'qish, safar va boshqa maqsadda borishini ko'paytirdi. Tabiiyki, xorijga borgan yurtdoshlarimizning huquqlarini muhofaza qilish, o'zga yurtlarda og'ir vaziyatga tushib qolganda yoki huquqiy va amaliy ko'makka ehtiyoj sezganida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda chet mamlakatlardagi elchixonalarining o'rni yuqori namoyon bo'ladi. Bu jarayonda davlatimiz fuqarolarining konsullik huquqiy xizmatlaridan erkinroq foydalanishi uchun zarur sharoit yaratish maqsadida xizmat turlarini ko'paytirish va elektron xizmatlarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Konsullik xizmatlarini

ko'rsatuvchi mobil platforma ishlab chiqish va raqamlashtirish borasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi bu borada katta qulaylik yaratadi.

Yana bir yo'nalish, yurtdoshlarimiz vizasiz kirishi mumkin bo'lgan mamlakatlar sonini 50 taga, soddalashtirilgan tartibda kirish mumkin bo'lgan davlatlar sonini 60 taga yetkazish chora-tadbirlari ham dunyo bo'ylab davlatimiz fuqarolarining safari va sayohati geografiasini kengaytirishda g'oyat muhim.

Birlashib yuksalayotgan mintaq

Mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim yo'nalishi Markaziy Osiyo integratsiyasini chuqurlashtirishdir. Prezidentimizning qat'iy siyosiy irodasi bilan qardosh davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalar yangi bosqichga ko'tarilib, dunyo siyosatida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora paydo bo'ldi.

Mintaqaviy hamkorlik borasidagi ishlar natijasida bir paytlar bizni ajratib turgan chegara masalalari uzil-kesil hal etildi. Ilgari keskin kelishmovchilik va ziddiyatlarga sabab bo'lgan suv-energetika sohasida ham prinsipial ijobiy o'zgarishlar ro'y bermogda. Bularning barchasi ishonch, o'zaro manfaatdorlik va umumiy resurslarga adolati yondashuvga asoslangan yangi hamkorlik ruhini shakllantirmogda. Bunday loyihalar aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash va mintaqaning energetika xavfsizligini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochmogda.



Shu bilan birga, chegara tartib-taomillari va gumanitar aloqalar sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermogda. 2023-yil sentabrdan boshlab O'zbekiston va Qirg'iziston fuqarolari ID karta asosida chegaradan o'tayotgani odamlarning erkin harakatlanishi yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Qozog'iston va Tojikiston bilan ham shunday kelishuvlar ishlab chiqilmogda. Hududlar o'rtasidagi aloqalar kengaymogda, chegaraldoli hududdagi savdo hajmi oshmogda, gumanitar va madaniy aloqalar mustahkamlanmogda.

Davlatlarimizning birgalikdagi sa'y-harakati bilan mintaqada yangi iqtisodiy voqeilik shakllanmogda. So'nggi yillarda mamlakatlarimizning yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o'sdi. Mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi ham 2 karra oshdi, o'zaro investitsiyalar esa 5,6 barobarga yetdi.

Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga 6 foiz atrofidagi o'sishni namoyish etmogda. Bu jahondagi o'racha o'sish sur'atidan ikki karra yuqori. Gumanitar sohada ham keyingi yillarda aloqalar mustahkamlanmogda. Eng muhimi, qardosh xalqlarimiz hozirgi barcha ijobiy o'zgarishlarni o'z kundalik hayotida his etmogda. Yangi o'tkazish punktlari ochilgani, aviataqnovlar, temir yo'l va avtobus yo'nalishlari yo'lga qo'yilgani o'zaro bordini keldilarni bir necha bor oshirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish imkonini berdi. Yaqin-yaqingacha orzu bo'lib tuyulgan erkin harakatlanish, o'zaro hurmat, yaqinlik va ishonch tuyg'usi bugun amaldagi haqiqatga aylanmogda.



Endi bu aloqalar yanada kengaytirilib, Markaziy Osiyoda Investitsiya va savdo uchun yaxlit hudud konsepsiyasi ilgari surilmogda. Barcha sa'y-harakatlar birlashtirilib, mintaqani tinchlik va taraqqiyot makoniga aylantirish egzu maqsad etib belgilangan. Yangi tahrirdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan tegishli chora-tadbirlar bunday egzu niyatlarini ro'yobga chiqarishda muhim qadam bo'lishi tabiiy. Hujjatga muvofiq, Markaziy Osiyoda amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, mintaqa davlatlari bilan

Endi bu ishlar ko'lamin kengaytirish, mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay muhit yaratish uchun mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitlarni kafolatlovchi “milliy rejim” joriy qilish choralari ko'rilyapti. Davlat organlari bilan munosabatga kirishishda “yagona darcha” tamoyili amaliyotga tatbiq etilishi belgilandi. Investitsiya faoliyatini ortiqcha tashkirluvlardan kafolatli himoyalash tizimi yaratildi. Bular orqali 2030-yilga borib O'zbekistonning kredit reytingini investitsiya darajasiga olib chiqish maqsad qilingan. Mamlakatimizga investitsiya jalb qilishda chet davlatlarda faoliyat yuritayotgan elchilarning ham alohida o'rmi bor. Davlatimiz rahbari 15-yanvardagi videoselektor yig'ilishida ta'kidlaganidek, “Hozirgi sharoitda elchi degani faqat siyosiy muloqot yurituvchi shaxs emas. Elchi investitsiya va texnologiya olib keladigan, yangi eksport bozorlarini ochadigan, transport-logistika yo'laklarini ishga soladigan, turistlar oqimini ko'paytirib, qonuniy mehnat migratsiyasi uchun sharoit yaratadigan, eng asosiy, fuqarolarimiz huquqlarini himoya qiladigan davlat vakildir”.

Shu bois, yig'ilishda elchilar uchun ular faoliyat yuritayotgan davlatlardan eksport tushumi, sayyohlar oqimi hamda ushbu mamlakatlarga qonuniy mehnat migratsiyasi — samaradorlik mezonini ko'rishni qayd etildi. Iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish orqali eksport va investitsiya hajmini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, investitsiya faqat moliyaviy manba emas. U texnologiya, bilim, malakali kadrlar, xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga qo'shilish, ya'ni haqiqiy taraqqiyot demakdir. Ammo bugun jahon iqtisodiyotida kapital uchun kurash har qachongidan ham kuchaygan bir sharoitda iqtisodiyotga investitsiya jalb etish mashaqqatli jarayonga aylanmogda. Bu borada iqtisodiy diplomatiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, qolaversa, investorlar uchun qulay sharoit yaratish va imtiyozlar taqdim etish, jamiyatda ochiqlik, shaffoflik, qonun ustuvorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zero, investitsiyalar faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning ham muhim kafolatidir. Shu bois, “Yangi O'zbekiston — investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati” degan tamoyilni qoray topirish maqsadida barcha choralar ko'rilyapti. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lida faol ishlanyapti. Iqtisodiy

diplomatiyani kuchaytirish orqali eksport va investitsiya hajmini oshirish borasida qat'iy qadamlar qo'yilmogda. Bu yo'nalishda ikki va ko'p tomonlama tadbirlar doirasida 2025-yilda umumiy qiymati 160 milliard dollarlik investitsiya loyihalari va savdo shartnomalari bo'yicha bitimlar imzolandi. Tarixda ilk bor tashqi savdo aylanmasi 80 milliard dollardan oshib, eksport qiymati 33,5 milliard dollarga yetdi, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 43 milliard dollardan ortdi. O'tgan yili 75 davlatga eksport hajmi qariyb 4,5 milliard dollarga ko'paydi.

Endi bu ishlar ko'lamin kengaytirish, mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay muhit yaratish uchun mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitlarni kafolatlovchi “milliy rejim” joriy qilish choralari ko'rilyapti. Davlat organlari bilan munosabatga kirishishda “yagona darcha” tamoyili amaliyotga tatbiq etilishi belgilandi. Investitsiya faoliyatini ortiqcha tashkirluvlardan kafolatli himoyalash tizimi yaratildi. Bular orqali 2030-yilga borib O'zbekistonning kredit reytingini investitsiya darajasiga olib chiqish maqsad qilingan.

Mamlakatimizga investitsiya jalb qilishda chet davlatlarda faoliyat yuritayotgan elchilarning ham alohida o'rmi bor. Davlatimiz rahbari 15-yanvardagi videoselektor yig'ilishida ta'kidlaganidek, “Hozirgi sharoitda elchi degani faqat siyosiy muloqot yurituvchi shaxs emas. Elchi investitsiya va texnologiya olib keladigan, yangi eksport bozorlarini ochadigan, transport-logistika yo'laklarini ishga soladigan, turistlar oqimini ko'paytirib, qonuniy mehnat migratsiyasi uchun sharoit yaratadigan, eng asosiy, fuqarolarimiz huquqlarini himoya qiladigan davlat vakildir”.

Shu bois, yig'ilishda elchilar uchun ular faoliyat yuritayotgan davlatlardan eksport tushumi, sayyohlar oqimi hamda ushbu mamlakatlarga qonuniy mehnat migratsiyasi — samaradorlik mezonini ko'rishni qayd etildi. Iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish orqali eksport va investitsiya hajmini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Millatlararo totuvlik va birdamlik

“Xavfsiz va tinchlikparvar davlat” deganda faqat tashqi siyosatdagi natijalarga emas, mamlakat ichidagi tinchlik-osoyshtalik, bag'rikenglik muhiti nechog'liq ta'minlangani ham muhim mezon. 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiluvchi mamlakatimiz uchun bu jihatlar barqarorlikning muhim kafolatidir. Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi mustahkamlab qo'yilgani bunday egzu qadriyatlar davomiyligida muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jamiyat hayotining barcha jabhasidagi keng ko'lamli islohotlar jarayonida millatlararo va konfessiyalararo munosabatlari yo'nalishida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Chunki bu yurtda ko'p millatlik shunchaki raqam emas, balki mamlakatimizning strategik boyligi sifatida ko'riladi.

Shu ma'noda, Prezidentimizning 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni hamda “O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu yo'nalishdagi ishlarni sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmogda.

Hozir yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari bag'rikenglik, do'stlik va hamjihatlik tamoyillari asosida yashab kelmogda. Davlatimiz rahbarining insonparvarlik va adolatparvarlik tamoyillari asosidagi siyosati natijasida yurtimizda umummilliy birdamlik yanada chuqur ildiz otmogda. Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan Vatanimiz inson qadri va baxti ulug'lanadigan tinchlik, do'stlik va mehr-oqibat diyoriga aylanmogda. Bu xayrli ishlar bardavom bo'lishi xalqimizning egzu niyatidir. Shu ma'noda, takomillashayotgan “O'zbekiston — 2030” strategiyasida davlat va jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga yo'naltirilgan muhim maqsad va vazifalar qatorida yurtimizda millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilangan.

Yangi tahrirdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi amaldagi hujjatning mantiqiy davomi bo'lib, uning mazmunan va usluban yangi bosqichini ifoda etadi, — deydi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita raisi o'rinbosari Bekzod Shukurov. — Unda, shuningdek, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni ko'lab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish hamda jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish yuzasidan qator yangi tashabbuslar ilgari surilmogda. Xususan, xorijiy davlatlardagi do'stlik jamiyatlar sonini 80 taga, birodarlashgan shaharlar sonini 150 taga yetkazish ko'zda tutilgan.

Xorijdagi vatandoshlarga ona tilimizda chop etilgan badiiy adabiyotlar yetkazib berishni ko'paytirish, ular tomonidan tayyorlangan



o'zbek tilidagi va o'zbek tilidan boshqa tilga tarjima qilingan ilmiy, badiiy, she'riy to'plam va boshqa adabiyotlar chop etilishini 125 taga yetkazish maqsad qilingan. “Anor” va “Chinor” loyihalari doirasida vatandoshlarni O'zbekistonga olib kelish, xorijdagi vatandoshlarning farzandlariga o'zbek tilini o'rgatishga ixtisoslashgan o'quv markazlari sonini ko'paytirish rejalashtirilgan.

Mazkur tashabbuslar xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ular bilan doimiy, tizimli va samarali muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Shu orqali chet elda yashayotgan yurtdoshlarimizning jitmioy, madaniy va ma'naviy jihatdan Vatan bilan uzviy aloqalarini mustahkamlash, ularning salohiyatini mamlakat taraqqiyoti yo'lida safarbar etish imkoniyati kengayadi. Ayni paytda

ushbu tashabbuslar jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitini yanada mustahkamlash, turli millat va elatlar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Natijada O'zbekistonning ko'p millatli jamiyat sifatidagi ijobiy qiyofasi xalqaro maydonda yanada mustahkamlanib, xorijiy davlatlar bilan do'stlik, strategik hamkorlik va o'zaro ishonchga asoslangan aloqalar yangi, sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tariladi.

Armiyamiz — osoyshtaligimiz kafolati

Hozir dunyoning siyosiy va harbiy xaritasidagi o'zgarishlar shiddatli kechmogda. Bu jarayonda xavfsizlik va chegaralar daxlsizligini ta'minlash, suverenitetni asrash hayot-mamot masalasiga aylanmogda. Bunday vaziyatda ona Vatanni muhofaza qilish, yurt tinchligini asrash mard va jasur himoyachilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bu esa davlatning mudofaa salohiyatini kuchaytirish, armiyaning harbiy qudratini oshirish kabi kechiktirib bo'lmas vazifalarni kun tartibiga qo'yumogda. Mamlakatimizda ham bu hayotiy muhim masalalarga oqilona yondashilib, Vatanimiz mudofaasini kuchaytirishga e'tibor har qachongidan ham oshgan.

Qurolli Kuchlarning harbiy qudratini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar qilin-yapti. Jumladan, boshqaruv va ta'minot tizimi takomillashtirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida modernizatsiya qilinmogda. Qo'shinlarimizning jangovar safi yangicha ta'lim-tarbiya olgan malakali ofiter va serjantlar bilan to'ldirilmogda. Shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi, harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyati izchil yuksaltirilyapti. Qurolli Kuchlarimiz zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan bosqichma-bosqich ta'minlanmogda.

Yoshlar o'rtasida harbiy xizmatga qiziqishni oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalq bilan armiya o'rtasidagi mustahkam birlik va jipslikni yanada kuchaytirishga qaratilgan ishlar izchil davom etyapti.

Yangi tahrirdagi strategiya doirasida bu jabhadagi ishlar yanada yuqori bosqichga ko'tariladi. Xususan, Qurolli Kuchlar rezervi uchun harbiy tayyorgarlikka ega safarbarlik resurslari ko'paytiriladi. Sohada zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellektidan foydalanish orqali qo'shinlarni raqamlashtirish darajasi keskin oshiriladi. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimi tubdan takomillashtiriladi.

Mintaqaviy va global vaziyat doimiy tahlil qilinib, bu chora-tadbirlarning barchasi, avvalo, xalqimiz bilan bamaslahat ko'rilyotir. Zero, bugungi sinovli davrda xalq va davlat birligi manfaatli, oqilona qarorlar qabul qilish, shu asosda kelajak avlodlarga tinch, barqaror va obod Vatan meros qoldirishdek egzu maqsadlar ro'yobiga xizmat qiladi. Qolaversa, dunyoda tinchlik va barqarorlikka erishishda O'zbekistonning maqomi va ta'sirini yuksaltirishga zamin yaratadi.



Qishloq xo'jaligi sohasida karantin va o'simliklarni himoya qilish masalalari globallashev sharoitida xalqaro savdo tizimi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, Jahon savdo tashkiloti doirasida amal qilayotgan sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar tizimi davlatlarning fitosanitar siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Karantin va o'simliklarni himoya qilishga oid standartlar, bir tomondan, o'simlik resurslarini zararkunanda va kasalliklardan muhofaza qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, xalqaro savdoda asossiz to'siqlar yuzaga kelishining oldini olishga qaratiladi.



Naibaxon MAMADALIYEVA,
Texnik jihatdan tartibga
solish agentligi direktorining
maslahatchisi

O'simliklar karantinini va himoyasi sohasida standartlashtirish tushunchasi, avvalo, ilmiy asoslangan, shaffof va xalqaro darajada tan olingan qoidalar majmuini anglatadi. Bu qoidalar zararli organizmlarning tarqalish xavfini baholash, fitosanitar choralarni tanlash va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Xalqaro savdo kengayib, agrar mahsulotlar ayiriboshlanishi ortib borayotgan hozirgi davrda bir mamlakatda mavjud bo'lmagan karantin zararkunandasi yoki kasalligi boshqa mamlakat hududiga kirib kelishi xavfi keskin oshib bormoqda. Shu sababli fitosanitar standartlar faqat ichki qishloq xo'jaligi siyosati vositasi emas, balki tashqi savdo munosabatlarning ajralmas qismiga aylangan.

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarish, qishloq xo'jaligi va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha yanada keng ko'lamli vazifalar belgilanib, tashqi bozorlar bilan integratsiyalashuv mexanizmlarini mustahkamlashning muhimligi ta'kidlandi. Mamlakatning iqtisodiy strategiyasi kontekstida agrar sektorni modernizatsiya qilish, sifat standartlarini joriy etish va ichki mahsulotlarni xalqaro talablarga muvofiqlashtirish ustuvor yo'nalishlar qatorida ko'rilmog'da. Bu esa karantin va o'simlik himoyasi sohasini tartibga solish jarayoni xalqaro fitosanitar talablar, jumladan, Jahon savdo tashkilotining standartlari bilan uyg'unlashtirishni talab qiluvchi strategik maqsad sifatida belgilanganini anglatadi.

Yurtimizda karantin va o'simliklar himoyasi sohasidagi qonunchilik tizimi milliy hududni zararli organizmlar, karantin kasalliklari va fitosanitar xavflardan muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Mazkur sohadaq normativ-huquqiy tartibga solish, avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish barqarorligini ta'minlash, biologik xavfsizlikni mustahkamlash va oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash vazifalarini qamrab oladi. Karantin va o'simlik himoyasiga oid qonunchilikda davlat organlarining vakolatlari, fitosanitar nazoratni amalga oshirish tartibi, karantin choralari joriy etish asoslari hamda

mahsulotlarning ichki va tashqi harakatida qo'llanadigan talablar belgilab qo'yilgan. Bu talablar milliy hududga tashqi fitosanitar xavflarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, mamlakat ichida zararli organizmlar tarqalishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, ular ko'p hollarda ma'muriy-nazorat xarakteriga ega ekanini ajralib turadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston qonunchiligida karantin va o'simlik himoyasi sohasida belgilangantalablarxalqarosavdomunosabatlari kengayib borayotgan hozirgi sharoitda yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Amaldagi me'yorlarda fitosanitar choralarni joriy etishda ilmiy xavf tahlili, mutanosiblik va hududiy farqlash kabi tamoyillar yetarli darajada institutsionallashtirish holatlar uchrab turadi. Bu esa tashqi bozorlarga chiqishda milliy mahsulotlar uchun qo'shimcha to'siqlar yuzaga keltirishi mumkin. Shu nuqtayi nazaridan, karantin va o'simlik himoyasi bo'yicha milliy qonunchilikni xalqaro sanitar va fitosanitar talablar, ayniqsa, JST doirasida qabul qilingan ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday uyg'unlashuv natijasida fitosanitar talablar faqat nazorat va cheklash vositasi emas,



balki eksportni rag'batlantiruvchi, xalqaro ishonchini oshiruvchi va milliy agrar sektor raqobatbardoshligini ta'minlovchi institutga aylanishi mumkinligidan kelib chiqib, bugun ushbu sohada aynan shunday islohotlar amalga oshirilmoqda.

Standartlar va karantin choralari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilar ekanmiz, milliy darajada qabul qilinayotgan fitosanitar talablar xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirilgan

taqdirda ular texnik yoki fitosanitar to'siq sifatida baholanishi mumkinligini ko'ramiz. Jahon savdo tashkiloti amaliyotida ko'plab nizolar aynan shu masala bilan bog'liq bo'lib, davlatlar o'z fitosanitar choralari haddan tashqari qat'iy yoki ilmiy jihatdan asoslanmagan holda joriy etganlikda ayblangan. Bu esa standartlarning faqat ilmiy emas, balki huquqiy va institutsional ahamiyati ham borligini ko'rsatadi.

Karantin va o'simlik himoyasi sohasida standartlashtirishning yana bir muhim jihati, milliy sifat infratuzilmasi bilan uzviy bog'liqligidir. Fitosanitar nazorat, laboratoriya sinovlari, diagnostika usullari, sertifikatlash va akkreditatsiya tizimlari bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida faoliyat yuritadi. Eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun fitosanitar sertifikatning xalqaro miqyosda tan olinishi ana shu infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Bu haqda xalqaro savdoda sifat, standartlar va sanitar-fitosanitar choralarning o'zaro bog'liqligi keng yoritilgan bo'lib, milliy tizimlarni xalqaro kelishuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Karantin va o'simlik himoyasi standartlari transdissiplinar xususiyatga ega bo'lib,

agronomiya, biologiya, huquq, iqtisodiyot va xalqaro munosabatlarga sohalarni o'zaro bog'laydi. Ularni faqat texnik me'yorlar sifatida emas, balki xalqaro savdo arxitekturasining institutsional elementi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv fitosanitar siyosatni ishlab chiqishda milliy manfaatlar bilan bir qatorda global ma'uliyatni ham inobatga olish imkonini beradi.



Xususan, Surxon vohasida ham yo'llarni ta'mirlash, yo'lovchi hamda haydovchilarga munosib shart-sharoit va qulayliklar yaratish maqsadida salmoqli ishlar qilindi. Hududda xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga ega yo'llar, ichki xo'jalik yo'llari, shahar va qishloq ko'chalari hamda ko'priklar bosqichma-bosqich yangilanoqda.

Hozir viloyatimiz hududidan 16 ming 170 kilometr avtomobil yo'li o'tgan. Shundan 2843 kilometr qismi Avtomobil yo'llari ko'mitasi tasarrufidagi umumfoydalanuvdagi yo'llardir. Jumladan, 351 kilometr xalqaro, 990 kilometr davlat ahamiyatiga ega hamda 1502 kilometr mahalliy toifadagi avtomobil yo'llari, — deydi Sherobod tumani yo'llardan foydalanish

korxonasi davlat muassasasi bosh mutaxassisi Oybek Nabiyeov. — Bu raqamlar ham hududning transport-logistika salohiyati yuqoriligini, uch mamlakatga qo'shni bo'lgan viloyatning nafaqat ichki, balki xalqaro yo'nalishlarda ham muhim tranzit hudud ekanini ko'rsatadi.

2025-yilda viloyatdagi barcha manbalar hisobidan 964,1 kilometr avtomobil yo'li, 20 ta ko'priklar va yo'l o'tkazigichda qurilish, rekonstruksiya va yo'l ta'mirlash ishlari bajarilishi rejalashtirilgan edi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, 901,1 kilometr yo'lda 747,3 milliard so'mlik ta'mirlash ishlari yakunlanib, belgilangan reja 100 foiz uddalandi. Bu ham yo'lsozlik sohasidagi tizimli ishlar va qat'iy nazorat samarasidir.

Yo'l infratuzilmasining muhim bo'g'ini



Taraqqiyot odimlari

bo'lgan ko'priklar harakat xavfsizligi va transport o'tkazuvchanligida alohida ahamiyat kasb etadi. 2025-yilda viloyatda 20 ta yangi ko'priklar qurildi yoki mavjudlari rekonstruksiya qilinib, o'tkazuvchanligi oshirildi.

Sherobod tumani "Qo'rg'on" MFY hududidan o'tuvchi ko'priklar ta'mirlalab ahyolga kelib qolib, tortligi sabab transport vositalari harakatida tirbandlik kuzatilardi. Bu esa qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirardi. Rekonstruksiya ishlari tufayli ko'priklar kengaytirilib, haydovchi va yo'lovchilar, mahalliy aholi hamda mehmonlar uchun

xavfsiz va uzluksiz qatnov ta'minlandi. Buning uchun davlat budgetidan 13,3 milliard so'm sarflandi, — deydi Sherobod tumani yo'llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi bo'lim boshlig'i Shuhrat Olloyorov.

Yo'llar transport harakatini ta'minlash bilan birga iqtisodiyotni ham jonlantiradi. Yangi va ta'mirlangan ravon yo'llar orqali mahsulot yetkazib berish sur'ati hamda xizmatlar sifati oshadi, aholining vaqti va mablag'i tejraladi. Ayniqsa, uzoq yillardan buyon aholini qiynab kelayotgan, yozning chillasida chang-uproq, yog'ingarchilik kunlarida loy-

balchiq bo'ladigan qishloq yo'llariga asfalt qoplamalarining yotqizilishi aholi hayotidagi sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. — O'tgan yili Investitsiya dasturi doirasida viloyat miqyosida 14 ta obyektidagi 19,5 kilometr yo'lda qurish, qayta qurish va ta'mirlash ishlari bajarildi, — deydi Surxondaryo viloyati mintaqaviy yo'llar buyurtmachi xizmati davlat muassasasi bo'lim boshlig'i Ma'murjon G'oziyev.

"Tashabbusli budget" dasturi ham aholi takliflari asosida hududlarni obod qilishda samarali mexanizmga aylandi. O'tgan yili

institutsional shaklga ega bo'lgan. Ushbu bitim 1995-yildan kuchga kirib, inson, hayvon va o'simliklar salomatligini muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha sanitar va fitosanitar choralarning xalqaro savdoga ta'sirini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatdir.

SPS bitimi davlatlarning o'simliklar karantinini va himoyasi sohasida suveren qaror qabul qilish huquqini tan olgan holda bunday qarorlar ilmiy dalillarga asoslanishi va savdoda asossiz cheklovlar keltirib chiqarmasligini qat'iy belgilaydi. Bitimning markaziy g'oyasi shundan iboratki, sanitar va fitosanitar choralar sog'liqni muhofaza qilish maqsadida qo'llanishi mumkin, ammo ular proteksionizm vositasi sifatida ishlatilmastigini lozim. Shu tariqa fitosanitar standartlar biologik xavfsizlik bilan erkin savdo o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi institutga aylanadi.

Mazkur bitim fitosanitar standartlarni ishlab chiqish va qo'llashda ilmiy xavf tahlilini asosiy mezon sifatida belgilaydi. O'simliklarga zarar yetkazuvchi organizmlarning kirib kelishi, joylashishi va tarqalishi bilan bog'liq xavflar aniq ilmiy ma'lumotlar, epidemiologik kuzatuvlar va xalqaro tajriba asosida baholanishi shart. Ilmiy asoslanmagan yoki xavf darajasiga nomutanosib choralar xalqaro savdoda nizolar keltirib chiqarishi mumkinligi bitimda alohida ta'kidlangan.

SPS bitimining 3-moddasi fitosanitar choralarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish tamoyilini mustahkamlaydi. Ushbu moddaga muvofiq, davlatlar o'z milliy sanitar va fitosanitar choralari mavjud bo'lgan xalqaro standartlar, qo'llanmalar va tavsiyalarga asoslanishi lozim. O'simliklar salomatligini muhofaza qilish sohasida bunday standartlar xalqaro fitosanitar tizim doirasida ishlab chiqiladi va ularga tayanishi milliy talablarning xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlaydi. Biroq mazkur modda davlatlarni xalqaro standartlarni mexanik tarzda qabul qilishga majbur qilmaydi, aksincha, ilmiy asos mavjud bo'lgan taqdirda yuqoriroq himoya darajasini belgilash huquqini saqlab qoladi. Bu normaning ahamiyati shundaki, u fitosanitar standartlarni bir vaqtning o'zida ham universal, ham milliy xususiyatlarga moslashuvchan institut sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, bitimning muhim institutsional jihatlaridan biri fitosanitar standartlarni xalqaro darajada uyg'unlashtirish tamoyilidir. Bunday uyg'unlashuv fitosanitar talablarning xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlab, eksport va import jarayonlarida huquqiy aniqlik yaratadi.

SPS bitimi doirasida fitosanitar choralarni hududiy sharoitlarga moslashtirish tamoyili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zararkunanda yoki kasallik mavjud bo'lmagan hududlarni tan olish, past xavfli hududlarni belgilash va karantin talablarini shu asosda farqlash xalqaro savdoda asossiz cheklovlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o'simlik himoyasi sohasida standartlarning qat'iy emas, balki xavfga moslashuvchan instrument ekanini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston hududi uchun juda muhim.

Shu nuqtayi nazaridan, O'zbekiston sharoitida mazkur normalarning ahamiyati yanada ortib boradi. Mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi jarayonida fitosanitar qonunchilikni aynan SPS bitimi moddalariga mos ravishda takomillashtirish milliy agrar mahsulotlarning tashqi bozorlarda qabul qilinishi uchun zarur shartlardir. Xavfli baholashga asoslangan yondashuvni institutsional darajada joriy etish, xalqaro fitosanitar standartlarga uyg'unlashuvni kuchaytirish va regionalizatsiya mexanizmlaridan foydalanish O'zbekiston uchun fitosanitar standartlarni savdo cheklovi emas, balki eksportni rag'batlantiruvchi omilga aylantirish imkonini beradi.

Karantin va o'simlik himoyasi masalalari standartlar orqali Jahon savdo tashkiloti tizimiga chuqur integratsiyalashgan. Bu standartlar o'simlik resurslarini muhofaza qilish, savdo xavflarini boshqarish va xalqaro bozorlarga barqaror kirishni ta'minlashning muhim vositasi. Ular ilmiy asoslangan, shaffof va xalqaro muvofiqlashtirilgan bo'lsagina fitosanitar choralarni o'zining ikkilamchi maqsadini — xavfsizlik va savdo erkinligini bir vaqtning o'zida ta'minlash vazifasini samarali ado eta oladi.

dasturning birinchi va ikkinchi mavsumi natijalariga ko'ra, viloyatda yo'l sohasi bo'yicha 105 mahalladagi 117 ta obyektida 151,8 milliard so'mlik tashabbusli loyihalar g'olib deb topildi. Mazkur obyektlarning barchasida qurilish va ta'mirlash ishlari to'liq yakunlanib, jami 370,1 kilometr yo'l foydalanishga topshirildi.

Surxondaryoda yo'l infratuzilmasini yaxshilash borasida megaloyiha amalga oshirilmoqda. Boysun, Bandixon, Qumqo'rg'on, Oltinsoy va Denov tumanlari hududidan o'tadigan uzunligi 111 kilometr bo'lgan "Darband — Boysun — Elbayon" yo'li qayta qurilmoqda. Yo'lining 52,9 kilometriga sement-beton qoplama yotqiziladi. Umumiy qiymati 8,68 million dollarga teng bo'lgan ushbu loyihani xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan xorijiy kompaniya amalga oshiryapti. Rekonstruksiya natijasida yo'l sifatlari, xavfsiz va uzluksiz harakat uchun mos holatga keltiriladi. Transport va logistika uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozir qurilish ishlari jadal davom etirilmoqda.

— Yo'l ravonligi yurt faronovligidan darak beradi. Aslida ham shunday, — deydi "Nuroni" jam'asmasi Boysun tumani bo'limi raisi Eshdavlat Toshboyev. — Yo'llarimiz yildan yilga ravonlashib boryapti. Avvallari nafaqat eng chekka hududlar, balki katta-kichik aholi markazlarida ham chang, loy ko'chalar bo'lardi. Hozir Boysundek tog'li manzillarning eng chekka qishloqlaridagi ko'chalar ham asfaltlanmoqda.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YURT KO'RKIGA AYLANAYOTGAN TEKIS VA RAVON YO'LLAR

Elda shunday gap bor: "Qo'lg'ul bog'bondan yashnagan bog', yaxshi muallimdan ilmiy shogird, mehnatkash yo'lsodan esa tekis va ravon yo'l qoladi". Bugun qayga qaramang, yashil hududlar kengayayotgani, fikri teran yoshlar ulg'ayayotgani, katta-kichik yo'llar yotqizilayotganini ko'rasiz.



Taraqqiyot odimlari

Prezidentimiz raisligida Xavfsizlik kengashining shu yil 13-yanvarda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida milliy armiyamizni yanada rivojlantirish, harbiy xizmatchilarni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Muddatli harbiy xizmatni o‘tash yoshlar uchun muvaffaqiyat yo‘liga aylanishi kerakligiga alohida urg‘u berildi. Endilikda muddatli harbiy xizmatning yangi modeli shakllanadi. Bu orqali armiyadan qaytgan har bir askar kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘ladi.



HARBIY XIZMAT

MUVAFFAQIYAT SARI YETAKLAYDI

Joylarda bu boradagi harakatlar boshlab yuborildi. Jumladan, Milliy gvardiya Farg‘ona viloyati bo‘yicha boshqarmasi kasb-hunarga o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘ymoqda. Ayni paytda muddatli harbiy xizmatchilar kompyuter grafikasi operatori, avtomobillarni ta‘mirlovchi chilangar, payvandlovchi va sartaorshlik kabi zamonaviy hamda talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha sertifikat olishga tayyorlanmoqda.

Kasbiy ta‘lim agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i To‘ychiboy Boymatov bergan ma‘lumotlar viloyatda yuqoridagi topshiriqlar ijrosiga jadal kirishilganini ko‘rsatadi.



— Endi muddatli harbiy xizmatchilarimiz nafaqat harbiy xizmat qiladi, balki o‘z iqtidori doirasida bitadand kasb egasi ham bo‘lib ketadi, — dedi T.Boymatov. — Albatta, hozirgi kun talabi — axborot texnologiyalari sohasi. AT, xorijiy tilsiz bugungi hayotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun bu yo‘nalishlarga malakali mutaxassislarni jalb qilganmiz. Ular muddatli harbiy xizmatdagi askarlarimizga ta‘lim-tarbiya berishga tayyor.

Kasbiy ta‘lim Farg‘ona viloyati boshqarmasi negizidagi 67 ta texnikum va kasb-hunar markazi imkoniyatlaridan foydalangan holda harbiy xizmatchilarga chilangar, payvandlovchi, kompyuter texnikasi operatori, shuningdek, marketing bo‘yicha mutaxassis, kadrlar va maxsus ishlar bo‘yicha inspektor, oftisiant, avtomobillarni ta‘mirlash chilangari, AutoCad dasturchisi, sartaorsh va elektromontyor kabi kasb-hunarlar o‘rgatilmoqda.

Muddatli harbiy xizmatchi Samandar Tursunov askarlarning mashinalarga texnik xizmat ko‘rsatish, santexniklik bo‘yicha kasb-hunar egallayotganidan mamnun.

— Bu hunar bizga kelajakda o‘z ishimizni, o‘rimizni topishimizda yordam beradi. Chunki hamma askarlar ham muayyan kasbni egallab ulgurmagani. Xususan, o‘zim harbiy xizmat davrida texnikaga xizmat ko‘rsatishni o‘rganyapman, shu yo‘nalish bo‘yicha o‘qiyapman. Qisqa muddatda ishga qo‘lim kelib, malaka, tajribam oshib boryapti, — deydi askar.

Sharqiy harbiy okrug Farg‘ona garnizonidagi harbiy qismlarda muddatli xizmatni o‘tayotgan askarlar uchun Farg‘ona shahridagi 4-texnikum bilan hamkorlikda kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rgatishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yildi.

Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni o‘rinbosari, polkovnik Mehridin Qo‘chqorovning aytishicha, 2025-2026-yilda xizmat qilayotgan muddatli harbiy xizmatchilarni ikki oy mobaynida kasb-hunarga, qolaversa, chet tillarga o‘rgatish maqsad qilingan. Bundan

tashqari, Sharqiy harbiy okrug hududida joylashgan Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida ham muddatli harbiy xizmatchilarni aynan shu yo‘nalishlarda o‘qitish ustida ishlanyapti.

Farg‘ona shahridagi 4-texnikum direktori Ravshan Umarov esa bugun harbiy xizmatchilarga ham xizmat qilish, ham kasb egallash imkoni berilgani ular orqali jamiyatga sezilarli manfaat keltirishini ta‘kidladi. Uning aytishicha, texnikumga eng oxirgi rusumdagi dastgohlar keltirilgan. Xalqaro ta‘lim dasturiga tushgan to‘rtta yo‘nalishda 120 askarga malakali, ilmiy darajasi bor o‘qituvchilar dars beryapti. Bu esa askarlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kelgusidagi kasbiy faoliyatiga mustahkam paydevor yaratadi hamda harbiy xizmatdan keyingi hayotga moslashuvini osonlashtiradi.

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Shohrux Yoqubov AT va harbiy xizmatda kerak bo‘ladigan kiberxavfsizlik bo‘yicha malaka oshiryapti. U yaratilayotgan bugungi sharoitli yoshlarning armiyaga qiziqishini oshirishga xizmat qilishi haqida ishonch bilan gapiradi.

Muddatli harbiy xizmatchilarni mehnat bozorida talab yuqori kasblarga yo‘naltirish maqsadida qisqa muddatli o‘quv kurslariga jalb etish ishlari barcha hududlarda jadal olib borilyapti. Zero, bu o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘ylangan ezu tashabbuslardan biri bo‘ldi. Bugun ham harbiy xizmatni o‘tab, ham kasb-hunar egasi bo‘lib ketish nechog‘liq manfaatli ekanini yoshlar yaxshi biladi.

Milliy gvardiya Qashqadaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi hamda Qarshi shahrida joylashgan Kasbiy ko‘nikmalar markazi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yo‘liga qo‘yildi. Hamkorlik doirasida muddatli harbiy xizmatchilar belgilangan tartibda ikki oylik qisqa muddatli o‘quv kurslarida tahsil olmoqda. Ayni paytda ular elektromontyor, chilangar hamda santexnik yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallamoqda.

Qarshi shahridagi Kasbiy ko‘nikmalar markazi bosh mutaxassisi Hulkar Ro‘ziqulova markazning Milliy gvardiya Qashqadaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi bilan kasbga o‘qitish borasida memorandum imzolaganini ma‘lum qildi. Maqsad — muddatli harbiy xizmatchilarni kasbga o‘qitish, harbiy xizmatdan qaytganlarni ish bilan ta‘minlash. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan muddatli harbiy xizmatchilarga davlat namunasidagi sertifikatlar topshirilishi rejalashtirilgan. Bu ularning harbiy xizmatdan so‘ng doimiy ish bilan ta‘minlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Muhim jihatlardan biri, askarlarning o‘quvlarni yakunlaganlik bo‘yicha sertifikatlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida rasmiylashtiriladi. Xizmatni tugatgan yoshlar nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda ham o‘z kasbi bo‘yicha ishlashi mumkin.

Harbiy xizmat davrida kasbga o‘qitish tizimi joriy etilishi bir necha muhim masalalarga yechim bo‘ladi. Yuqorida aytilganidek, yoshlarning harbiy xizmatni o‘tashga qiziqishi sezilarli darajada ortadi. Xizmatni tugatib qaytganlarning ishsiz qolish xavfi kamayadi. Zero, kasb-hunarli yoshlarda o‘z kuchiga ishonch ortadi. Ularda tadbirkorlik yoki mehnat faoliyatini boshlashga intilish kuchayadi. Bu esa kambag‘allikni kamaytirish, oilalar farovonligini ta‘minlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlarimiz samaradorligi yanada ortishini ta‘minlaydi.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Milliy davlatchiligimiz tarixidan

2026-yil 31-yanvar, 21-son

5

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz muqaddimasida “davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosi” alohida ta‘kidlanadi.

ASHTARXONIYLAR SULOLASI

XVI asrning oxirlariga kelib, Buxoro xonligida shayboniylar sulolasining zaiflashuvi oqibatida yuzaga kelgan siyosiy bo‘shliq ashtarxoniylar (joniyar) (1601-1747) sulolasining hokimiyatga kelishiga imkoniyat yaratdi. O‘rta asrlarga xos boshqaruv an‘analaridan biri – hukmdorning chingiziylar sulolasiga mansubligi ashtarxoniylar uchun oliy hokimiyatni qo‘lga kiritishga asos bo‘ldi.



Ashtarxon (Astraxan) asli “Hojitaxon” so‘zidan olingan. Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asarida yozilishicha, u Chingizxon avlodining Jo‘ji naslidan bo‘lib, XIV asrning oxirlaridan Astraxan va uning atrofidagi yerlarda hukmronlik qilgan. 1556-yilda ushbu hududlarni rus qo‘shinlari zabt etishi tufayli ashtarxoniylardan bo‘lgan Yor Muhammadxon oilasi bilan shayboniy Iskandarxon (1561-1583) hukmronligi yillarida Buxoroga keladi. Bu yerda ular izzat-ikrom bilan kutib olindi. Iskandarxon Yor Muhammadxonning katta o‘g‘li Jonibek sulonga qizi Zuhraxonimni nikohlab beradi. Bu nikohdan Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammad ismli farzandlar dunyoga keladi. Shu tariqa ashtarxoniylarning mavqei mustahkamlanib, siyosiy maydonda ham faol o‘rin egallay boshlaydi.

1598-yilda shayboniy Abdulmo‘minxon o‘ldirilgandan so‘ng munosib nomzod topilmagach, xonlik taxtiga Jonibek sultonni o‘tqazmoqchi bo‘ladilar. Biroq u rozi bo‘lmaydi. Shu bois, uning katta o‘g‘li Din Muhammad nomiga xutba o‘qiladi hamda tanga zarb etiladi. Ammo Din Muhammad Hirot yaqinida safaviylarga qarshi jangda halok bo‘ladi. Shundan so‘ng taxtga Boqi Muhammad (1601-1605) o‘tiradi.



Vali Muhammad

Boqi Muhammad mamlakat chegaralarini mustahkamlash hamda boshqaruv tizimini izga solish uchun ko‘p harakat qiladi. Uning hukmronligi davrida davlat qonunlarining amal qilishi sezilarli darajada jonlanadi. Davlat boshqaruvi apparati qayta tashkil etiladi. Harbiy tizim mustahkamlanadi hamda aholi farovonligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘riladi. 1605-yilda Boqi Muhammad vafot etgach, ukasi Vali Muhammad (1605-1611) taxtga o‘tiradi. U ham akasi kabi dastlab mamlakatning janubiy chegaralari xavfsizligini ta‘minlashga harakat qiladi. Biroq vaqtining ko‘p qismini ichkilikka, bazmlarga sarflashi, davlat ishlariga nisbatan xotirjamligi hokimiyatning zaiflashuviga olib keladi. Manbalarda yozilishicha, uning davrida mamlakatda tarqoqlik kuchayib, ichki kurash avj oladi. Qabila beklari xon hokimiyatiga bo‘ysunmay, muxolifatchilikni kuchaytiradi. Vali Muhammad Buxoro taxtini egallab, Shohbek ko‘kaldoshni Balx nobi etib tayinlagandan so‘ng ko‘p o‘tmay, Imomqulixon (1611-1642) bilan o‘rtalarida ixtilof kelib chiqadi. Buxorolik amirlar xon ustidan jiyani Imomqulixonga shikoyat qilib, xonga qarshi isyon uyushtiradi. Bundan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib, Eronga — shoh

Abbos (1588-1629) yoniga boradi. Shohdan harbiy madad olgach, Imomqulixonga qarshi yurish boshlaydi. Ammo ko‘plab amirlar Imomqulixon tarafiga o‘tib, unga mustahkam tayanch bo‘lib turgan. Mahmud ibn Valiyning “Bahr ul-asror” asarida qayd etilishicha, Samarqand amirlari — Yalangto‘shbiy otaliq olchin, Boqi Muhammad, Nodirbek Shukrbiy saroy va boshqalar Imomqulixonni qo‘llab-quvvatlagan. Ikki o‘rtada bo‘lib o‘tgan jangda Imomqulixon Eron qo‘shinlarini tor-mor etib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoladi. Vali Muhammad esa asir olinib, qatl qilinadi.

Imomqulixon davrida davlat hokimiyati nisbatan kuchayib, siyosiy barqarorlik o‘rnatiladi hamda ichki nizolarga chek qo‘yiladi. Tarixchi Muhammad Yusuf Munshiyning ta‘kidlashicha, Imomqulixon zamonida Balxda ham, Buxoroda ham tartibsizlik yoki isyon kuzatilmagan. U o‘z siyosatini, avvalo, mamlakat chegaralari xavfsizligini mustahkamlash va hududiy kengaytirishdan boshlaydi. Xususan, shimoldan mamlakat hududiga xavf solib turgan qozoq va qalmlarlarga qarshi yurish qilib, ularni Movarounnahrndan quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ladi.

O‘sha davr manbalarida jamiyatdagi osoyishtalik, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik haqida ham ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, ulardan birida shunday bitiklar bor: “U davlatda bid‘at va buzg‘unchilikka oid bo‘lgan narsalarning barchasini bartaraf etdi, muhtojlarni nohorlikdan qotqardi, arz bilan murojaat qilganlarning hech birini rad etmadi. Uning zamonida kambag‘al va qashshoq qolmagani edi”. Shuningdek, uning oddiy kiyimida vaziri Nodir devonbegi va qo‘riqchisi bilan birga fuqarolar ahvolidan boxabar bo‘lish maqsadida kechalari bozorlar hamda mahallalarni aylanishi xususida ham qaydlar mavjud. Tarixiy asarlarda Imomqulixonning shaxsiy xislatlariga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Ularda xonning olimu ulamolalar, shoirlar bilan subhat qurishga yuksak ishtiyoq bildirgani, shu bilan birga, o‘zi ham she‘rlar bitgani e‘tirof etiladi.

Hukmronligining so‘nggi yillarida Imomqulixonning ko‘zi ojiz bo‘lib qoladi. Shu sabab u taxtdan ixtiyoriy ravishda voz kechib, Balxdan ukasi Nadr Muhammadxonni (1642-1645) chaqirtirib, uni taxtga o‘tqazadi. Yangi xon hukmronligining dastlabki yillari nisbatan barqaror kechgandek tuyulsa-da, keyin mamlakatdagi osoyishtalik o‘mini ichki nizolar, qarshiliklar egallaydi. Jamiyatda amirlarning nufuzi ortib, xon hokimiyatiga qarshi isyonlar ko‘tarila boshlaydi. Oqibatda 1645-yilda uning to‘ng‘ich o‘g‘li Abdulazizxon (1645-1681) xon deb e‘lon qilinadi. Noliq qolgan Nadr



Muhammadxon Balxga ketishga majbur bo‘ladi. Adabiyotlarda aynan shu davrda mamlakatda “qo‘sh hokimiyatchilik” hukm surgani xususida fikrlar bildirilgan.

Abdulazizxon (1681-1702) davrlarida ham siyosiy vaziyat o‘nglanmaydi, ko‘plab hududlar qo‘ldan boy beriladi. Buxoro xonligida avj olgan ichki sulolaviy kurashlar davlatni zaiflashtirib, hududning talon-taroj qilinishiga sharoit yaratadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Dashti qipchoq ko‘chmanchilari hamda Xorazm hukmdorlari tomonidan tez-tez hujum uyushtirilib, shahar va qishloqlar vayron etilgan.

Navbatdagi ashtarxoniy hukmdor Ubaydullaxon II (1702-1711) davrida ham ichki siyosiy tarqoqlik davom etadi. Oqibatda Balx, Samarqand, Hisor, Shahrisabz, Nasaf singari asosiy viloyatlar amirlar tasarrufiga o‘tadi. Bu holat amirlar va yirik amaldorlarning mavqei tobora ortib borganini ko‘rsatadi. Xon bu vaziyatga qarshi qator chora-tadbirlarni ko‘rishga uringan. Xususan, ayrim amaldorlarni markaziy hokimiyatdan chetlatib, ular o‘rniga hunarmand va savdogarlar tabaqasi farzandlarini tayinlagan. Shuningdek, pul islohotini o‘tkazgan. Biroq ushbu islohotlar kutilgan natijani bermaydi. 1711-yilda u uyushtirilgan fitna oqibatida halok bo‘ladi. Shunga qaramay, Ubaydullaxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash va mamlakatni inqirozdan olib chiqishga intilgan ashtarxoniy hukmdorlardan bo‘lganini ta‘kidlash lozim.

Abulfayzxon ibn Subhonqulixon (1711-1747) ashtarxoniylar sulolasining amaldagi so‘nggi hukmdori bo‘lib, o‘zidan oldin taxtga kelgan xonlar ichida eng yoshi edi. Ayrim manbalarda u 16, boshqalarda esa 10 yoshida Buxoro taxtiga o‘tirgani qayd etiladi. Shu bois, u bir guruh siyosiy kuchlar ta‘siri




Abdulazizxon

doirasiga tushib qolib, keyinchalik ham bu holatdan chiqib keta olmagani.

XVIII asrda yuzaga kelgan iqtisodiy-siyosiy tanglik mamlakatni chuqur inqirozli holatga olib keladi. Mazkur vaziyatdan foydalangan Eron hududida yuksalib borayotgan afshoriylar sulolasi yetakchisi Nodirshoh (1736-1747) Markaziy Osiyo, xususan, Buxoroga harbiy yurish boshlaydi. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda ushbu yirik siyosiy voqea mintaqadagi xonliklarni tashqi kuchlarga qarshi ittifoqlashib, birgalikda harakat qilishga undagan omil sifatida baholalanadi. Jumladan, Nodirshohning o‘g‘li Rizoquli mirzo 1737-1738-yilda Balxni egallab, Movarounnahrnga yurish qilgan vaqtda Abulfayzxon va Hakimbiy otaliq Xiva xoni Elbarsxondan yordam so‘ragani manbalarda keltirilgan.

1740-yilda Nodirshoh yana Buxoro tarfaga yurish qiladi. Tarixchi Abdulkarim Buxoriyning yozishicha, “Nodirshohning Movarounnahmri bosib olish harakatiga javoban kuchlar nisbatini



to‘g‘ri baholay olgan Abulfayzxonning niyati sulh tuzish bo‘lgan”. Nodirshoh Hindistondan qaytayotganda xon uning qo‘shiniga kuchi yetmasligini tan olib, bir necha ishonchli kishilari hamda jo‘ybor xojalarini sovg‘a-salom bilan Peshovarga — Nodirshoh huzuriga jo‘natib, taslim bo‘ladi.

Ushbu voqealardan so‘ng garchi Abulfayzxon xonlik taxtida qolgan bo‘lsa-da, davlat boshqaruvi mang‘itlardan bo‘lgan Muhammad Hakimbiy otaliqqa topshirib qo‘yilgan edi. 1747-yili xonning fojiali o‘limidan keyin hokimiyat Muhammad Rahimbiy qo‘liga o‘tadi. “Chingiziylarga mansublik” an‘anasini saqlash maqsadida muayyan vaqt ashtarxoniylar sulolasi vakillari nomiga taxtga o‘tqazilsa-da, amalda ularda siyosiy hokimiyat mavjud emas edi. Shu tariqa ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi uzil-kesil barham topadi.

Ashtarxoniylar davrida davlat apparati to‘g‘ridan to‘g‘ri xonga bo‘ysungan hamda barcha ma‘muriy va siyosiy idoralar uning oliy hokimiyati asosida faoliyat yuritgan.

Ichki ziddiyatlarga qaramay, ashtarxoniylar sulolasi davrida adabiyot, tarix, fiqh yo‘nalishlarida qator salmoqli asarlar bitilgan. Xususan, adabiyotga qiziqishi kuchli bo‘lgani sababli Subhonqulixon davrida adabiy muhit ancha jonlangan. Manbalarda keltirilishicha, xonning o‘zi ham Nishoniy taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Shu bilan birga, Subhonqulixon tibbiyot sohasiga alohida e‘tibor qaratgan. Uning tashabbusi bilan “Dori ush-shifo” nomli maxsus majmua barpo etilgan. Mazkur majmua madrasa, kutubxona, shifoxona va dorixonadan iborat bo‘lib, kutubxonasida tibbiyotga oid taniqli hakimlarning asarlari jamlangan.

O‘rta asrlarga xos an‘anaviy tarixnavislik ham ushbu davrda davom etib, bu borada ko‘plab asarlar bitildi. Xususan, Mahmud ibn Valiyning “Bahr ul-asror”, Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” hamda Abdurahmon Tolening “Tarixi Abulfayzxon” kabi asarlari shular jumlasidan.

Ashtarxoniylar davrida ta‘lim muassasalari qurilishiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Hukmdorlar va yirik amaldorlar madrasa barpo etish hamda ularni vaqt mulklari bilan ta‘minlash orqali ta‘lim-tarbiya tizimini qo‘llab-quvvatlagan. Jumladan, Buxorodagi Abdulazizxon, Ubaydullaxon, Nodir devonbegi, Balxdagi Nadr Muhammadxon, Subhonqulixon, Samarqanddagi Sherdor, Tillakori singari madrasalar mazkur sulola davrida bunyod etilgan.

O‘zbek davlatchiligi tarixida ashtarxoniylar sulolasi davri murakkab, biroq ahamiyatli bosqichdir. XVI asr oxirida shayboniylar sulolasining zaiflashuvi oqibatida siyosiy bo‘shliqni to‘ldirgan ashtarxoniylar Buxoro xonligida qariyb bir yarim asr davomida hukmronlik qildi. Sulola hukmronligining dastlabki bosqichida davlat hokimiyatining nisbatan mustahkamlanishi, siyosiy barqarorlik va chegaralar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq keyingi davrdagi ichki kurashlar, amirlar nufuzining ortishi, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi hamda tashqi bosqinlar xonlikning siyosiy-iqtisodiy inqiroziga olib keldi. Biroq ushbu murakkabliklarga qaramay, madaniy va ilmiy hayot uzluksiz davom etdi, ilm-fanda muayyan yutuqlarga erishildi.

Nargiza ISMATOVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti katta
ilmiy xodimi



6
2026-yil 31-yanvar, 21-son

Yaqinlari, dugonalari davrasida 15 yoshini nishonlayotgan, sovg'a-salomlarni qabul qilib olayotgan Sojidaning sevinchi ichiga sig'maydi. Kutilmaganda mehmon bo'lib kelgan qarindoshlari orasidan bir ayol keldi-da, uni mahkam bag'riga bosib, bo'yniga tilla zanjir taqib qo'ydi. Qimmatbaho sovg'adan qiz behad quvondi, dugonalari unga havas bilan qaradi.

Lekin Sojidaning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. Tug'ilgan kunida "Uzuk taqdi" marosimi bo'lib o'tgani, u 10-sinfda o'qiydigan maktabdoshi — badavlat xonadonning yolg'iz o'g'liga unashtirib qo'yilgani, maktabni tamomlashi bilanqo uzatilishi haqida eshitganida boshiga osmon qulab tushgandek bo'ldi. Chunki dugonalari kabi Sojidaning ham bir olam orzusi bor edi. Maktabni tamomlagach, tibbiyot oliyihogida o'qish, kelajakda bolalar shifokori bo'lish, ilmiy darajalarga erishishni ko'ngliga tukkandi...

Hayotimizda bunday holatlar uchrab turibdi. Sababi, yurtimizning ayrim hududlariga xos bu kabi udumlar qizlarni oliy ma'lumot olish hamda o'zi istagan ish bilan shug'ullanishdan mahrum qilmoqda.

Oila kodeksining 15-moddasiga ko'ra, nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan. Biroq 16-17 yoshga to'lgan yigit-qizlarning ham nikohdan o'tish uchun murojaat qilishi, aksariyat hollarda to'yi allaqachon o'tgani kabi holatlar amaliyotda kuzatilmoqda. Bunday oilalar yurtimizdagi ajrashish, erta tug'uruq, ona va bola o'limiga oid statistik ko'rsatkichlarni ko'paytiradi.

Bu holatning asosiy omillari, sabab va oqibatlar i xususida mas'ul tashkilotlar vakillarining fikri qanday?

Surayyo RAHMONOVA,
Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani):

— Erta nikohlarni keltirib chiqarayotgan asosiy omillardan biri hududlarda o'smir qizlarning ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirish, bilimi hamda ko'nikmalarini oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy makonlar (kovorking markazlari, kutubxonalar, yoshlar klubi va boshqalar)ning yetarli emasligidir.

Suyarjon QURBONQULOV,
O'zbekiston mahallalari uyushmasi mas'ul xodimi:

— Hammamiz mahallada yashaymiz. Jamiyat hayotiga daxldor barcha ezgu amallar, shuningdek, kemtikliklar ham aynan mahalla bilan bog'liq. Bugun yurtimizda "mahalla yetilligi" tizimi ishlarimoqda. Shuningdek, barcha mahallada oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyalari faoliyat yuritimoqda. Bu komissiya tarkibiga xotin-qizlar faollari, profilaktika nozirlari ham kiritilgan. Aynan ular mahalladagi har bir xonadon muhitini yaxshi biladi.

Erta nikoh kabi salbiy holatlar hisobi mahallalarda, qolaversa, boshqa idoralarda ham yuritiladi. Lekin har bir tashkilot bu masala bilan o'z holicha alohida shug'ullangani bois, statistikada nomutanosibliklar yuzaga kelmoqda. Bu dolzarb va o'ta og'riqli masala. Nafaqat ayrim tashkilotlar, balki butun jamiyatga taalluqli. Mazkur illatga yechim topish uchun esa barchamiz birlashishimiz zarur.

ERTA TURMUSH QURISH QADRIYAT EMAS



Shuningdek, odamlar orasida "maktabni tugatgandan keyin yagona yo'l — turmushga chiqish" degan maishiy tafakkur shakllangani ham sabab bo'layotir.

UNICEF odamlar tafakkuriga chuqur o'rtnashgan mahalliy odatlar hamda ma'naviy eskirgan ijtimoiy qarashlarni

O'zbekistonda qizlarning erta turmushga uzatilishiga asosiy sabab sifatida ko'rsatgan. Shu bois, bolalarga maktab davridanoq barkamol avlod bo'lib shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar bo'yicha zarur tushuntirish berilishini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Dilbar AHMEDOVA,
Respublika ixtisoslashgan Ona va bola salomatligini saqlash ilmiy-tekshirish instituti reproduktiv shifokori:

— Yurtimizda nikoh yoshi 18 yosh etib belgilangan bo'lsa-da, shifokor sifatida bu yoshdagi qizlar jismoniy jihatdan ham, ruhiy va emosional jihatdan ham hali oila qurishga tayyor emas deb bilaman. Bugun ijtimoiy tarmoqlar tufayli yoshlarda jinsiy hayotga qiziqish erta uyg'onmoqda. Shu bois, ular orasida erta turmush ortidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ta'limiy va salomatlik bilan bog'liq muammolarga qaratilgan targ'ibot ishlarini yanada jonlantirish zarur. Jumladan, jinsiy salomatlik, erta homiladorlik hamda jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklardan saqlanish yo'llari haqida o'smirlar uchun sifatli va to'liq o'quv dasturi ishlab chiqilishi kerak. Bunga oid fanni biologiya yoki jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari emas, aynan soha mutaxassislari, tibbiyot xodimlari o'tishi lozim.

Mulohaza

Gulmira TLEYOVA,
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi:

— Voyaga yetmaganlarni maktab davridanoq unashtirib qo'yish, erta oila qurishga majburlashni bola huquqlarining poymol etilishi deb baholash mumkin. Bunday holatlar ko'pincha ona yoki bola o'limiga, nimjon, nogiron bolalar tug'ilishiga sabab bo'ladigan erta tug'uruqlarning asosiy omildir.

Erta nikohlarni FHDYO bo'limlari ro'yxatdan o'tkazilmasligi oqibatida latend (yashirin) holatda qolib ketmoqda. Kelinda homiladorlik, salomatligi yoki iqtisodiy jihatdan muammolar yuzaga chiqib, tegishli muassasalarga murojaat qilgandagina vaziyat oshkor bo'lmoqda. Menimcha, bunday holatlarga nisbatan qo'llanadigan jazo choralarini kuchaytirish lozim.

Lobar QORAXONOVA,
Qori Yoziyoz nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim mudiri:

— Xalqaro tadqiqotlarda oilaviy zo'ravonlikka duch kelgan o'smir qizlar orasida erta nikohga kirish ehtimoli ancha yuqori ekanini qayd etilgan. Mazkur holat nafaqat inson huquqlari buzilishi, balki ta'limdan uzilish, sog'liq bilan bog'liq muammolar, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik avj olishiga sabab bo'lmoqda.

Oilaviy zo'ravonlik jismoniy, psixologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bunday muhitda o'sgan qizlarning ta'limiga qiziqishi pasayadi, ijtimoiy faolligi cheklanadi. Erta nikoh ular uchun oilaviy zo'ravonlikdan qutulish vositasi sifatida qabul qilinadi.

Hozir umumta'lim maktablarida reproduktiv salomatlik savodxonligini oshirish, jinsiy tarbiya masalalarini umumta'lim fanlari tarkibida o'qitib kelinmoqda. Tarbiya fani tarkibida "O'smir

Nargiza DEHQONOVA,
Din ishlari bo'yicha qo'mita bo'lim boshlig'i:

— Islom ta'limotida nikohning asosiy sharti tarafalar roziligi va yetukligi ekanini ta'kidlanadi. Qur'oni karimda ham, hadislarda ham insonning huquqlari, sog'lig'i va baxti muhim qadriyat sifatida keltiriladi. Erta unashtirish yoki turmushga chiqishga majburlash voyaga yetmagan qizlarning tabiiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, salomatligiga zarar yetkazadi, ruhiy iztirobga sabab bo'ladi.

Shuningdek, erta nikoh jamiyat hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: ajralishlar ko'payishi, quda-andalar o'rtasidagi nizolar, yosh kelinlarning ruhiy iztirobi, hatto o'z joniga qasd qilish darajasiga yetgani kabi fojialar bunga misoldir. Bunday holatlar nafaqat diniy, balki axloqiy va huquqiy jihatdan ham qabul qilinmaydi. Qo'mitamiz tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda bunday holatlarning oldini olish borasida salmoqli ishlarni bajarmoqda. Jumladan, yaqinda Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanida yashovchi, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasida 16 yosh deb yozilgan, lekin aslida 15 yoshli qizni 32 yoshli qarindoshiga uzatishning oldi olindi. Oilaning holati o'rganilib, salomatligi tufayli qizini erta uzatishga majbur bo'lgan betob ayol shifoxonaga yotqizildi, qiz esa kollejga o'qishga qaytarildi...

Gulbahor QULMATOVA,
xalq deputatlar Mirobod tumani kengashi deputati:

— Men rahbarlik qilayotgan Shayxontohur tumani FHDYO bo'limida bir kunda 2 nikoh hamda yosh oilalar orasida 8 ta ajralish holati qayd etildi. Ajrashish uchun ariza berganlar orasida o'zim bir yarim oy avval nikohini qayd etib, baxt tilagan kelin-kuyovlar ham bor. Yosh oilalardagi ajrashish holatlariga aksariyat hollarda qaynonalar, ba'zan qaynonalar ham sabab bo'layotir. Biz esa asosan yoshlarni ayblaymiz. Menimcha, ajrashayotgan yoshlarni emas, voyaga yetmagan, jismoniy, ruhiy jihatdan yetilmagan, oilaviy turmush haqida hali biror tasavvurga ega bo'lmagan farzandlarini turmush qurishga majburlayotgan ayrim kattalarni tarbiyalash kerak.

Dilorom AHMEDOVA,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti kafedra mudiri:

— Xalqimizning "sovchilik" degan go'zal qadriyati bor. Lekin o'zini hurmat qilgan odam voyaga yetmagan qizning xonadoniga sovchilikka bormaydi. To'g'ri, amaldagi qonunchiligimizda nikoh yoshi yoki nikoh tuzish tartibini buzganlik uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlik belgilangan. Biroq erta turmushning asosiy omili bo'lgan voyaga yetmaganlarni unashtirish, "og'iz solish", "ro'mol o'rash", "beshik kediti", "quloq tishlash", "uzuk taqdi" kabi zararli urf-odat va mahalliy an'analarni o'tkazish, barvaqt turmush qurishni targ'ib buzganlik uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlik belgilangan. Biroq erta

ta'minlash, qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarni kengaytirish zarur. Voyaga yetmagan farzandlarini unashtirish uchun turli marosimlarni o'tkazayotgan, qizlarini maktabga yubormayotgan ota-onalar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish hamda erta turmushning zararli oqibatlarini haqida targ'ibot ishlarini jadallashtirish talab etiladi.

Feruza JALILOVA,
jurnalist

CHANGLISOY DARASI SIRLARI



Moziyga nazar

Yurtimizdagi g'orlar, qoyatoshlarga qadim odamlar o'yib qoldirgan manzaralar shunchaki tasvirlar to'plami emas. Ular insoniyat tarixi, turmush tarzi, diniy, madaniy va ma'naviy hayoti, dunyoqarashidan so'zlovchi tamaddun sadolaridir. Shulardan biri Navoiy viloyatining Navbahor, Nurota va Xatirchi tumanlari tutashgan joydagi Changlisoy darasi sanaladi.

Mutaxassislar fikricha, Changlisoy "to'zib oqadigan daryo" degan ma'noni anglatadi. Dara uncha baland bo'lmagan tepaliklar va tik yonbag'irlar bilan o'ralgan. Arxeologlar bu yerdagi qoyatosh rasmlari neolit, ilk bronza davrlariga tegishli deb taxmin qiladi. Ularda ko'proq tog' echkisi, kiyik, ot va buqa kabi hayvonlar tasvirlangan. Jamoaviy ov qilish epizodlari ham oz emas. Qo'llari yuqoriga ko'tarilgan odamlar tasvirini esa tadqiqotchilar turli marosimlar bilan bog'liq deb izohlaydi.

Petrogliflar — g'orlar, qoyalar va toshlarga ishqalash, o'yish yoki chizish yo'li bilan yaratilgan qadimgi tasvirlar. Ular uchli tosh

yoki metall yordamida tinab muhrlangan. Changlisoydagi qoyatoshlarda sanoqsiz mayda nuqtalar bilan qoldirilgan tasvirlarni ham uchratish mumkin.

Albatta, hozir arxeologlarga zamonaviy texnologiyalar — lazer skaner, fotogrammetriya, dronlar katta yordam beryapti. Butun dara va alohida plitalarning raqamli modellari yaratilmoqda.

Sarmishsoy kabi mashhur bo'lmasa-da, Changlisoyning bir necha tasvirlari hududning o'ziga xos "tashrif qog'ozi" ga aylandi. Undagi petroglifning mavzulari keng qamrovli. Afsuski, bu arxeologik yodgorliklar qator



muammolarga duch kelmoqda. Jumladan, kimdir bo'yoqda qadimgi rasm ustiga o'z ismini yozadi, yana kimdir tasvir tushirilgan toshlarni sindirib tashlashga uringan holatlar uchraydi.

Yana bir xavf — tabiiy jarayonlar. Shamol, suv va harorat o'zgarishi asta-sekin toshni va undagi tasvirlarni yemiradi. Albatta, olimlar, mahalliy hokimiyat va ko'ngillilar ularni asrab-avaylashga harakat qilayotir. Ular

Mutaxassislarning erta turmushning salbiy oqibatlariga doir barcha fikri bir nuqtada birlashadi. Amaldagi qonunchiligimizda erta nikohning oldini olishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, erta nikoh holatlarida ixtiyoriylik va majburlash xatti-harakatlari o'rtasidagi farqni aks ettiruvchi normalar kiritish hamda mazkur holatlar uchun belgilangan javobgarlik choralarini tubdan takomillashtirish, umumta'lim muassasalarida oila psixologiyasiga oid darslar yoki fakultativ mashg'ulotlar o'tilishini

yondashuv shu yerga kelgan har bir kishining tafakkuridan joy olmog'i kerak.

Qoyatosh rasmlarining bir qismi raqamli shaklda hujjatlashtirilgan. Mahalliy aholi uchun ma'rifiy ekskursiyalar o'tkazilmoqda. Zero, Changlisoy haqida qancha ko'p odam bilsa, uni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Nurota tog' tizmasi tabiatini kuzatar ekanimiz, undagi tog'u toshlar geologik xususiyatlariga ko'ra nihoyatda xilma-xil ekaniga guvoh bo'lamiz. Xususan, Langan cho'qqisi va uning atrofidagi tog'lar juda mustahkam granit toshlardan iborat. Granit toshli ayrim tog'larda g'iyoh ham o'smaydi. Shundan bo'lsa kerak, qadimdan ajdodlarimiz ularning nomlarini ham shunga mos atagan: Baxiltov, Bitov yoki Junnati tog' kabi.

Tog' tizmasining quyirog'idagi qir-adirlarni esa turli toshlar qoplagan. Sarmishsoy, Biyronsoy kabilar shular jumlasidan. Yanayam pastroqdagi Jizmonsoy, Qoraungirsay kabi daralar atrofidagi qoyalar esa qumtoشلardan iborat.

Bularni aytishimiz sababi shundaki, hamma turdagi toshlarga ham surat chizish oson va qulay bo'lmagan. Masalan, Sarmishsoy va Biyronsoydagi slanesdan iborat qoyalar sirtiga yorqin tasvir chizish oson va qulay. Changlisoy darasidagi granitdan iborat qoyalar juda mustahkam, qattiq va sirti tekis emas. Shunga qaramay, ushbu dara atrofida yashagan ajdodlarimiz ularga ham betakror tasvirlar tushira olgan.

Changlisoy qoyatosh suratlarida eng ko'p uchraydigan jonivorlar tasvirlari. Ular orasida buxoro xongulisi tasviri ham uchraydi.

Qadimda ular butun Zarafshon vohasi kengliklarida to'da-to'da bo'lib yashagan. Hozir esa Amudaryo sohilidagi Badayto'y qay, Buxorodagi Jayronxona, Jizzaxdagi Nurota davlat tabiat qo'riqxonalarida saqlanib qolgan.

Soydagi qoyatosh suratlarida orasida xonakilashtirilgan uy hayvonlari, ot va buqalar tasvirlari ham ko'p uchraydi.

Ana shunday qoyatosh suratlarida ko'pchilikning e'tiborini o'ziga jalb qilgan, boshqa joyda uchramaydigan namunalardan biri o'rakchilik buqa tasviri. Bu turdagi buqalarni odatda Hindistonda uchratish mumkin. Qadimda o'rakchilik buqalar yurtimizda ham mahalliy chorva hisoblangan. Ularga omoq qo'shib yerga ishlav berishgan, ot o'rniqa aravalarga qo'shib yuk tashishgan.

Changlisoy petrogliflari "tosh yilnomasi" bo'lib, bizni uzoq o'tmishga, ming yillar avval yashagan odamlarning his-tuyg'ulari, urf-odatlariga va e'tiqodlari dunyosiga nazar solishga imkon beradi. Zero, tabiatning bir bo'lagi bo'lgan bunday yodgorliklarni muzeylarda eksponat sifatida joylab bo'lmaydi. Ularni antropogen va tashqi tabiiy ta'sirlardan saqlash juda murakkab. Hali yozuv kashf etilmagan bir davrda yaratilgan bunday qadim yodgorliklar esa yurtimiz, xalqimiz tarixining zarvaraqalaridan biri. Shunday ekan, ularni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunimiz, kelajagimizga bo'lgan munosabatimizni ifodalaydi.

Ramazon EGAMOV,
Sarmishsoy davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar i tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy